



# FARG‘ONA VILOYATI QO‘SHTEPA TUMAN HOKIMINING QARORI

2022 - yil 30 - aprel

111-11-157-Q/22

Qo‘shtepa tuman hokimligi

**Viloyat hokimining 2022-yil 11-aprel kungi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-fevraldagi Avtomobil yo‘llari sohasida ochiqlik standartlarini joriy etish va sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 149-11-0-Q/22-sonli qarori haqida**

Viloyat hokimining 2022-yil 11-aprel kungi 149-11-0-Q/22-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida

## **QAROR QILAMAN:**

1. Viloyat hokimining 2022-yil 11-aprel kungi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-fevraldagi Avtomobil yo‘llari sohasida ochiqlik standartlarini joriy etish va sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 149-11-0-Q/22-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan:

Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi (*keyingi o‘rinlarda — Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi*) tomonidan avtomobil yo‘llari sohasida shaffoflik va jamoatchilik oldidagi hisobdorlik standartlarini joriy qilish bo‘yicha «Shaffof yo‘1» onlayn axborot platformasi (*keyingi o‘rinlarda — «Shaffof yo‘1» platformasi*) ishlab chiqilganligi;

Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi, Moliya vazirligi va Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda avtomobil yo‘llari sohasiga tegishli ma‘lumotlar bazasini o‘z ichiga olgan «Shaffof

yo‘1» platformasini 2022-yil 1-iyuldan boshlab test rejimida ishga tushirishi belgilanganligi;

«Shaffof yo‘1» onlayn axborot platformasida avtomobil yo‘llari sohasida ochiq axborotlar shaklida joylashtirilishi lozim bo‘lgan ma‘lumotlar ro‘yxati 1-ilovaga, tuman (shahar)lar mahalliy byudjetlari parametrlarida hududiy ichki xo‘jalik yo‘llarni ta‘mirlash uchun ajratilgan mablag‘larni jamoatchilik fikri asosida aniqlangan ichki xo‘jalik yo‘llarini ta‘mirlashga yo‘naltirish tartibi to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiklanganligi:

Quyidagilar belgilanganligi, jumladan:

a) avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta‘mirlash va saqlash ishlari uchun yo‘naltirilayotgan mablag‘larning harakati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar — Moliya vazirligi tomonidan;

avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash ob‘ektlarida olib borilayotgan yo‘l qurilish ishlari haqidagi, shu jumladan, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari bilan bog‘liq ma‘lumotlar — Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi tomonidan;

mahalliy hokimliklar buyurtmachiligidagi ichki xo‘jalik yo‘llari, shaharlar va boshqa aholi punktlaridagi ko‘chalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan shakllantirilib, «Shaffof yo‘1» platformasiga kiritilishi belgilanganligi;

b) «Shaffof yo‘1» platformasining alohida sahifasi orqali aholining yo‘llar nosozligi, shuningdek, yo‘llarda va yo‘l bo‘yida xavfsiz harakatlanish uchun yuzaga kelgan favqulodda texnik muammolar (*svetoforlar va yo‘l belgilar o‘rnatilmaganligi yoki ularning shikastlanganligi, tabiiy ofatlar natijasida yuzaga keladigan hodisalar ortidan hosil bo‘ladigan oqibatlar*) haqida foto va videomurojaatlar — jamoatchilik fikri asosida shakllantirilishi;

v) «Shaffof yo‘1» platformasida joylashtiriladigan ma‘lumotlar bazasi Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi rasmiy veb-sayti hamda manfaatdor vazirlik va idoralarga tegishli ma‘lumotlar bazalari bilan integratsiyalashgan holda yuritilishi;

Moliya vazirligining «Ochiq byudjet» axborot portali (*keyingi o‘rinlarda — «Ochiq byudjet» portali*) orqali tuman (shahar)lar byudjetlari parametrlarida hududiy ichki yo‘llarini ta‘mirlash uchun ajratilgan mablag‘larni jamoatchilik fikri

asosida shakllangan ichki xo‘jalik yo‘llarni ta‘mirlashga yo‘naltirish to‘grisidagi taklifiga rozilik berilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimi o‘rinbosari (B.Qurbonov), tuman yo‘llardan foydalanish UK (Sh.Umirzaqov), tuman Kadastr agentligi (R.Axmadaliev)lar birga:

Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi tomonidan ilg‘or xorijiy tajribaga asoslangan holda 2022-yil 1-mayga qadar ishlab chiqiladigan avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash ob‘ektlarining interaktiv onlayn xaritasi-sxemasini (*keyingi o‘rinda —xarita*) «Shaffof yo‘l» platformasiga joylashtirish bo‘yicha xamkorlikda ishlarni olib borish;

2023-yildan boshlab va keyinchalik har yili keyingi yilda qurilishi, rekonstruksiya qilinishi, ta‘mirlanishi nazarda tutilgan barcha toifadagi yo‘l uchastkalarini xaritaga joylashtirish amaliyotini yo‘lga qo‘ysin. Bunda, xaritadagi har bir ob‘ekt bo‘yicha texnik-pasport, foto-video materiallar yuritilishi va aks ettirilishi inobatga olinsin.

4. Tuman Yo‘llardan foydalanish UK (Sh.Umirzaqov), tuman Moliya bo‘limi (I.Akbarov), manfaatdor korxonalar va tashkilotlar bilan birgalikda o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

6. Tuman hokimligi Axborot xizmati (Y.Qosimova), “Istiqbol yo‘li” gazetasi (U.Xudoyberganova), tuman Yo‘llardan foydalanish UK (Sh.Umurzakov)lar birgalikda ushbu qaror maqsadi va vazifalari ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta‘minlasin.

7. Tuman Yo‘llardan foydalanish UK (Sh.Umurzakov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (M.Ro‘ziboev)lar birgalikda bir oy muddatda ichki xo‘jalik yo‘llarni sement-beton qoplamaga o‘tkazgan holda ta‘mirlashda:

sement-beton qoplamali yo‘llarni qurishga ixtisoslashgan tajribali korxonalar faoliyatini o‘rganish asosida ularning texnologiyalarini tatbiq etish va maxsus uskunalarni xarid qilish;

yirik sement-beton ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan kooperatsion aloqalarni o‘rnatish orqali yo‘llarni ta‘mirlash tannarxini tushirishni ta‘minlovchi tadbirlar amalga oshirilishini nazarda tutuvchi «yo‘l xaritalari»ni ishlab chiqish yuzasidan zaruriy ishlarni amalga oshirsin.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari

B.Qurbonov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



I.V.Novikov